JINOYATDA ISHTIROKCHILIK VA UNING TURLARINING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI

Xakimxo‘jayeva Sevdo Kamol qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi

sevdoxakimxojayeva@gmail.com

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20301564

Annotatsiya: Mazkur maqolada jinoyatda ishtirokchilik va bir qancha jinoyat sodir etish institutlarining nazariy-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Unda ishtirokchilik tushunchasi, uning shakllari, turlari, jumladan, tashkilotchi, bajaruvchi, dalolatchi va yordamchining jinoyat sodir etishdagi vazifalari batafsil tahlil qilinadi hamda institutning mazmuni yoritiladi. Shuningdek, ushbu institutlarning o‘zaro bog‘liqligi, ularni kvalifikatsiya qilishdagi muammolar va amaliyotdagi ziddiyatli holatlar ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: jinoyatda ishtirokchilik, jinoyat shakllari, jinoyatda ishtirok etganlik uchun javobgarlik, jinoyatlar majmui, takroran jinoyat sodir etish, retsidiv jinoyat.

СОВМЕСТНОЕ УЧАСТИЕ В ПРЕСТУПЛЕНИИ И ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ЕГО ВИДОВ

Аннотация: В данной статье анализируются теоретико-правовые основы института соучастия в преступлении и института совершения нескольких преступлений. Освещаются понятие соучастия, его формы, а также содержание института совокупности преступлений. Кроме того, научно обосновываются взаимосвязь данных институтов, проблемы их квалификации и спорные ситуации в правоприменительной практике.

Ключевые слова: соучастие в преступлении, формы преступления, ответственность за соучастие, совокупность преступлений, повторное совершение преступления, рецидив преступлений.

PARTICIPATION IN CRIME AND THE THEORETICAL AND LEGAL ANALYSIS OF ITS TYPES

Abstract: This article analyzes the theoretical and legal foundations of the institute of participation in crime and the institute of multiple offenses. It examines the concept of participation, its forms, and the content of the institute of aggregation of crimes. In addition, the interrelation of these institutes, issues of their legal qualification, and controversial cases in law enforcement practice are scientifically substantiated.

Keywords: participation in crime, forms of crime, liability for participation in crime, aggregation of crimes, repeated commission of crime, criminal recidivism.

Kirish

Hozirgi kunda jinoyatchilikning murakkablashuvi va uning turli shakllarda namoyon bo‘lishi jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishda bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, jinoyatlarning bir necha shaxslar ishtirokida sodir etilishi hamda bir shaxs tomonidan bir qancha jinoyatlarning amalga oshirilishi shular jumlasidan bo‘lib, jinoyatda ishtirokchilik va jinoyatlar majmui institutlari jinoyat huquqining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Amaliyotda mazkur

institutlarni qo‘llashda ayrim murakkabliklar, xususan, ishtirokchilik shakllarini aniqlash, jinoyatlar majmuini takroriy jinoyatlardan farqlash, shuningdek, aybdor shaxslarning javobgarligini to‘g‘ri belgilash bilan bog‘liq muammolar mavjud. Bu esa mazkur masalalarni chuqur ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi.

Asosiy qism

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 27-moddasiga muvofiq, ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalikda qatnashishi jinoyatda ishtirokchilik deb e’tirof etiladi. Ishtirokchilik tushunchasi, Jinoyat kodeksi maxsus qismining instituti sifatida ancha keng talqin qilinadi. Ishtirokchilikning quyidagi alomatlarini qayd etish mumkin: ayni bir jinoyatda ikki yoki undan ortiq shaxsning ishtiroki, guruh a’zolarining birgalikda harakat qilishi va jinoyatning qasddan sodir etilishi. Birinchi alomat obyektiv, so‘nggi alomat esa – subyektiv xususiyatga ega. Ayni bir jinoyatda ikki yoki undan ortiq shaxsning qatnashishi jinoyatda ishtirokchilikning obyektiv alomatini tashkil etadi. Moddadaning zaruriy sharti ikki yoki undan ortiq shaxsning qatnashishi hisoblanadi. Shuningdek, jinoyat ishtirokchilikda sodir etilganida ishtirokchilarning barchasi aqli raso va shu jinoyat uchun qonunda belgilangan yoshga yetgan bo‘lishi talab qilinadi. Ishtirokchilikni belgilab beradigan asosiy mezonlardan biri, jinoyat sodir etishda har bir ishtirokchining xarakteri va darajasi hisoblanadi. Jinoyatda uning ishtiroki darajasi esa, o‘z vazifalarini bajarish vositalari xarakteridan tashqari, uning hamjihatlikda sodir etiladigan jinoyatning xossasi haqida tasavvur beradi. Masalan, qasddan odam o‘ldirishda yordamchilik ko‘rsatgan shaxs jinoyat qurbonining qachon va qayerda bo‘lishi kerakligini yoki jabrlanuvchining iltimosiga ko‘ra, yordamchining unga jinoyat qurolini, jinoyat sodir etish joyidan tez yashirinish uchun transport vositalarini topib berganligi va shu kabilarda ifodalanadi. Jinoyat kodeksining 28-moddasi birinchi qismiga muvofiq, quyidagilar jinoyat ishtirokchilari, deb topiladilar: 1) bajaruvchi; 2) tashkilotchi; 3) dalolatchi; 4) yordamchi. Jinoyat sodir etilayotganda har bir ishtirokchi turli xil vazifalarni bajaradi. Jinoyatni bevosita yoki to‘liq sodir etgan yohud jinoyat kodeksiga ko‘ra jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lmagan shaxslardan foydalanib, jinoyat sodir etgan shaxs bajaruvchi deb topiladi. Bajaruvchi, odatda asosiy vazifada bo‘lib, reja rahbari tomonidan berilgan vazifalarni amalga oshiradi. Bajaruvchi tomonidan jioyat to‘la yoki qisman sodir etiladi. Jinoyatni to‘la sodir etish bu Jinoyat kodeksining maxsus qismining tegishli moddasi dispozitsiyasida ko‘rsatilgan qilmish obyektiv tomonining to‘liq sodir etilishi tushuniladi. **Jinoyatni qisman sodir etish** — jinoyatning obyektiv tomonini tashkil etuvchi qilmishning sodir etish bo‘lib, bajaruvchiga bog‘liq bo‘lmagan holda tamom bo‘lmaydi yoki modda dispozitsiyasida ko‘rsatilgan oqibatning yuz bermasligida ifodalanadi. Ikkinchisi, jinoyatning bevosita bajaruvchi tomonidan sodir etilishidir. Bevositalik — bajaruvchi shaxs tomonidan Jinoyat kodeksining Maxsus qismida ko‘rsatilgan jinoyatning sodir etilganligi yoki sodir etilishiga urinishni anglatadi. Jinoyat obyektiv tomonining jinoiy javobgarlikka tortiladigan yoki aqli norasoik alomatlari bo‘lgan shaxslar tomonidan bajarilishi hollari e’tiborga qaratish lozim. Masalan, agar jinoyat muayyan qilmish uchun jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan yoki aqli noraso shaxs tomonidan sodir etilsa, uni jinoyat sodir etishga undagan shaxs bajaruvchi bo‘lib hisoblanadi, uning voyaga yetmagan shaxsga nisbatan harakatlari esa, voyaga yetmagan shaxs sodir etgan jinoyat sodir etishga jalb qilish sifatida Jinoyat kodeksining 127-moddasi 3-qismi bo‘yicha kvalifikatsiya qilinadi. O‘z jinoiy maqsadini oxirgi zarurat holatidagi boshqa shaxslarni majburlab jinoyat sodir etgan shaxslarni ham jinoyat bajaruvchisi deyilishi kerak.

Jinoyatning tashkilotchisi jinoyat ishtirokchilari ichida eng xavfli shaxsdir. U jinoyat rahbari bo‘lib, ishtirokchilarni birlashtiradi, jinoyatni amalga oshirish maqsadida ularning tartibli xatti-harakatlarini ta’minlashga intiladi. Tashkilotchi jinoyat rejasini ishlab chiqadi, boshqa ishtirokchilarni tanlaydi, ularning orasida vazifalarni taqsimlaydi, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi. Tashkilotchi faqatgina uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tarkibida emas, balki vazifalar taqsimlanishidagi ishtirokchilikda ham bo‘lishi mumkin. Birinchi holda tashkilotchining javobgarligi bevosita Jinoyat kodeksining Maxsus qismi normalari bilan qamrab olinadi, alohida jinoyatni tashkil etsa, ikkinchi holda, tashkilotchi vazifalarni taqsimlashidagi ishtirokchilik doirasida faoliyat olib boradi va uning javobgarligi Jinoyat kodeksining

Maxsus qismida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha vujudga keladi. Tashkilotchi deganda jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki sodir etilishga rahbarlik qilgan shaxs tushuniladi. Demak, tashkilotchilik faoliyati ham o‘z navbatida ikki turga bo‘linadi. Birinchisi jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishga tashkilotchilik hamda sodir etilishiga tashkilotchilik.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rilishiga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs tashkilotchi deyiladi. Bajaruvchi bilan oldindan til biriktirib jinoiy rejani amalga oshirlishida rahbarlik qiladi, odatda, uning o‘zi ishtirik etmasligi ham mumkin. Jinoyat sodir etishga rahbarlik qilish jinoiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rishdan iborat, ya’ni jinoyat sodir etish tashabbusi bilan chiqish, ishtirokchilarni jalb etish, ularni jinoyat sodir etish qurollari va vositalari bilan ta’minlash, jinoiy rejalarni ishlab chiqish, ishtirokchilar o‘rtasida vazifalarni taqsimlash va hokazo vazifaalrni bajaradi. Mazkur bosqich jinoyat sodir etishga oldindan til biriktirish bilan qamrab olinadi, chunki busiz jinoyat sodir etishning tayyorlov qismiga rahbarlik qilib bo‘lmaydi. Biroq, bu ishtirokchilikda jinoyat tashkilotchisi amalda uyushgan guruhning tashkilotchisi va rahbariga aylanadi, degani emas. Jinoyatni tashkil etishning ikkinchi shakli shundan iboratki, bunda tashkilotchi, jinoiy qilmish sodir etish tashabbusi bilan chiqmasdan, jinoiy niyatning amalga oshirilishini ta’minlab, ishtirokchilarning butun jinoiy faoliyatiga rahbarlik qiladi. Jinoyat sodir etishga qiziqtiruvchi shaxs dalolatchi deb topiladi. Dalolatchilik og‘dirib olish, iltimos qilish, ishontirish, undirish, buyruq berish, zo‘rlik ishlatish, aldash va boshqa yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Dalolatchilikninq bu tashqi ifodalanish shakllari yozma yoki og'zaki faoliyatda, konkyudent yoki boshqa harakatlarda (imo-ishora) yuzaga chiqadi. Dalolatchilik vositasi sifatida ishontirishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, tashqi tomondan dalolatchining jinoyatga o‘z manfaatlari bo‘lmaydi. Bajaruvchining irodasiga ta’sir etib, dalolatchi u yoki bu qilmishi sodir etish maqsadga muvofiqliqini va zarurligiga, jinoyat sodir etilishi bajaruvchi manfaatlarida ekanligiga ishontirishga harakat qiladi. Jinoyat sodir etilishiga o‘z masalahtlarini, ko‘rsatmalarini bilan, vositalar berish yoki to‘siqlarni yo‘qotishga ko‘maklashgan, shuningdek jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli, izlari va vositalari o‘tkazish to‘g‘risida olindan va’da bergan shaxs yoramchi deb topiladi. Yordamchilik obyektiv tomondan faol harakat bilan yoki harakatsizlik bilan amalga oshirilishi mumkin. Subyektiv tomondan yordamchi birgalikda sodir etilayotgan jinoyatning faktik holatlarini, o‘z harakatlari bilan muayyan shaxs yoki guruhga qilmishni sodir etishda ko‘maklashayotganini, o‘zining harakatlari bajaruvchi tomonidan sodir etilgan jinoyat bilan sababiy bog‘lanishda ekanligini va buning natijasida u jinoyatni amalga oshirishda bajaruvchi bilan birga ishtirok etayotganini anglaydi. Yordamchi kelib chiqadigan jinoiy oqibatni oldindan ko‘ra bilib, uning yuz berishini istaydi va bunga ongli ravishda yo‘l qo‘yadi. Yordamchilikning subyektiv tomoni, ishtirokchilikning boshqa turlari singari, jinoyat tarkibining barcha obyektiv belgilari va boshqa baholovchi holatlarning aybdor tomonidan anglanishini ham o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyatda ishtirokchilik instituti jinoyat huquqining eng muhim va murakkab masalalaridan biri bo‘lib, u jinoyatni bir necha shaxslar tomonidan o‘zaro kelishilgan holda sodir etilishi bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Jinoyat kodeksining 27–28-moddalarida belgilangan ishtirokchilik tushunchasi, uning shakllari hamda ishtirokchilar (bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi)ning huquqiy maqomi jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish va adolatli jazo tayinlashda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
2. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism/M.Rustambayev. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, - 2021.– 784 b.